MULTIMADANIY TA’LIM MUHITI SHAROITIDA TALABALARDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI

Aliyeva Chinora Boxodir qizi
Fargona Davlat Universiteti Phd mustaqil izlanuvchisi
Farg‘ona shahri, 1-ixtisoslashtirilgan maktab-internati.Rus tili o‘qituvchisi
ORCID ID 0009-0005-2309-6935

Annotatsiya

Ushbu maqolada global integratsiya sharoitida oliy ta’lim muassasalarining multimadaniy ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarning muloqot madaniyatini tizimli rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Maqolada respublikamizning turli hududlaridan kelgan talabalar jamoasidagi madaniy va sotsial o‘ziga xosliklar tahlil qilinib, "multimadaniy muhit" va "madaniy kod" tushunchalarining pedagogik mazmuni yoritilgan. Shuningdek, talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishning to‘rtta asosiy komponentdan (kognitiv, amaliy-faoliyatli, aksiologik va kommunikativ) iborat funksional-blokli tizimi hamda ushbu tizimni amaliyotga samarali tatbiq etishning strategik pedagogik omillari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *multimadaniy muhit, muloqot madaniyati, madaniy kod, tolerantlik, kross-madaniy munosabatlar, funksional-blokli tizim, sotsiomadaniy adaptatsiya.*

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta’lim makonida kechayotgan integratsiya jarayonlari oliy ta’lim muassasalari o‘z mohiyatiga ko‘ra turli millat, etnik guruh va madaniy qadriyat vakillarini o‘zida birlashtirgan multimadaniy ta’lim muhiti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy universitetlar shunchaki tayyor kasbiy bilimlarni beruvchi muassasa bo‘lmay, balki turli millat, elat, mintaqa va madaniyat vakillari, ularning o‘ziga xos muloqot uslublari hamda qadriyatlari o‘zaro uchrashadigan jonli multimadaniy ta’lim muhitiga aylanmoqda. Bunday ko‘p madaniyatli akademik makonda bo‘lajak mutaxassislarning professional va shaxsiy kamolotini ta’minlash, ularda yuksak muloqot madaniyatini rivojlantirish bugungi pedagogika fani va amaliyotining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, yurtimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar va Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti poydevorini barpo etish jarayonlari orasida oliy ta’lim muassasalari talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirish, o‘qituvchi va pedagoglarning kasbiy faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hamda ularning bilimlarini jahon standartlariga mos tarzda yanada takomillashtirish masalalari eng muhim jihatga aylanib bormoqda.

Ayniqsa, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini belgilab beruvchi eng asosiy tamoyillardan biri hisoblangan kasbga oid ko‘nikmalarni yuksak darajada egallashi, ularda multimadaniy muhitda pedagogik jarayonni yuqori saviyada olib borishini ta’minlaydigan sifatlarni shakllantirish bo‘yicha respublikamizda tizimli ravishda ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta’lim tizimida talabalarning muloqot madaniyatini yuksaltirish shunchaki nutqiy malakalarni o‘zlashtirish yoki axborot almashish mexanizmi emas, balki turli madaniyat, til va etnik guruh vakillari bilan

konstruktiv muloqotga kirishish, o‘zaro hamkorlikni ta’minlash va tolerantlik (bag‘rikenglik) fazilatlarini namoyon etishning integral tizimidir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning o‘qituvchi va pedagoglarga qarata: “Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir”, — deya aytgan so‘zlari soha xodimlariga qaratilayotgan alohida e’tibor, g‘amxo‘rlik va yuksak mas’uliyatni yana bir bor ta’kidladi.

Ushbu strategik vazifalardan kelib chiqqan holda, oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish, talabalarda ko‘p madani8yatli muhitda muloqot madaniyatini shakllantirish va ular uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratish masalalari yildan yilga o‘zining yuqori dolzarbligini aks ettirmoqda. Bunday sharoitda talabalarda muloqot madaniyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi sotsiomadaniy moslashuvning (sotsializatsiyaning) qiyinlashishiga, kommunikativ to‘siqlarning yuzaga kelishiga va professional shakllanish jarayonining sekinlashishiga olib kelishi mumkin.

ASOSIY QISM

Ko‘p madaniyatli ta’lim muhitida olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda talabalarning muloqotga tayyorligi deganda faqat til ko‘nikmalari (so‘z boyligi, talaffuzi, grammatikasi) tushuniladi. Vaholanki, real hayotda va ko‘p millatli talabalar auditoriyasida muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun o‘zga madaniyat belgilarini to‘g‘ri tushunish, vaziyatga moslashish va psixologik jihatdan bag‘rikeng bo‘lish talab etiladi. Bugungi kunda jamiyatdagi madaniy xilma-xillik ehtiyojlari bilan uni oliy ta’limda o‘qitish uslubiyoti o‘rtasida ma’lum bir uzilishlar ko‘zga tashlanmoqda.

Muloqot madaniyati — bu shunchaki til qoidalarini bilish yoki nutqning chiroyli bo‘lishi emas. U o‘z ichiga o‘zga madaniyat belgilarini to‘g‘ri tushunish, muloqot jarayonida sotsial empatiya va tolerantlik (bag‘rikenglik) ko‘rsatish, kutilmagan va ziddiyatli vaziyatlarda ijobiy murosaga kela olish qobiliyatini qamrab oluvchi murakkab pedagogik tizimdir. Multimadaniy muhit talaba uchun ham imkoniyat, ham o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik sinov maydonidir. Boisi, bir guruh yoki auditoriyada turli dunyoqarashga ega bo‘lgan yoshlarning hamkorlik qilishi muloqotda turli to‘siqlar (stereotiplar, tushunmovchiliklar, nutqiy moslasha olmaslik)ni yuzaga keltirishi mumkin.

Ko‘p madaniyatli ta’lim muhitida shaxs shakllanishining sotsiopedagogik qonuniyatlari shuni ko‘rsatadiki, aksariyat amaliy modellar talabalarning kommunikativ tayyorgarligini faqat instrumental-lingvistik komponent (leksik boylik, fonetik moslashuv, grammatik to‘g‘rilik) doirasida tor doirada loyihalaydi. Vaholanki, real ko‘p madaniyatli akademik auditoriyada muvaffaqiyatli muloqotga kirishish subyektdan yuqori darajadagi interpretatsion kognitsiyani, ya’ni o‘zga madaniy simvollarni to‘g‘ri dekodlashni, kontekstual moslashuvchanlikni va refleksiv-psixologik bag‘rikenglikni taqozo etadi. Mavjud ijtimoiy-madaniy xilma-xillik ehtiyojlari bilan uning oliy ta’lim tizimidagi institutsional-metodik ta’minoti o‘rtasidagi nomutanosiblik muloqot madaniyatini rivojlantirishni yaxlit bir pedagogik tizim sifatida konseptuallashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Shu sababli, talabalarda muloqot madaniyatini shunchaki tarqoq tadbirlar yoki alohida darslar orqali emas, balki yaxlit bir funksional-blokli tizim asosida rivojlantirish talab etiladi. Bu tizim talabaning bilim darajasini oshirish (mazmuniy-bilish), dars jarayoniga interaktiv keyslar va muloqot simulyatsiyalarini olib kirish (texnologik-faoliyatli) hamda ularning tolerantlik darajasini muntazam monitoring qilib borishni (baholash-mezonli) ko‘zda tutishi lozim.

Multimadaniy muhit o‘zi nima?

Bizning konseptual qarashimizga ko‘ra, multimadaniy muhit — bu shunchaki turli millat vakillarining bir joyda yashashi yoki o‘qishi emas. Universitet sharoitida bu tushuncha ancha kengroq qamrovga ega. Multimadaniy muhit — bu respublikaning xilma-xil viloyat va hududlaridan kelgan, o‘ziga xos til va sheva xususiyatlari, oilaviy tarbiya modellari, ijtimoiy qatlam qarashlari va hududiy mentalitet shakllariga ega bo‘lgan yoshlarning yagona bir akademik makonda jamlanishidir.

Bu muhitda har bir talaba alohida bir "madaniy kod" tashuvchisi hisoblanadi. Auditoriyada ushbu kodlarning o‘zaro to‘qnashishi natijasida yoki ijobiy hamkorlik (integratsiya), yoki yashirin tushunmovchilik va guruhbozlik (sotsial differensiyatsiya) yuzaga edi. Shuning uchun bu muhit o‘z-o‘zidan tashlab qo‘yilmasligi, balki pedagogik jihatdan boshqariladigan tizimga aylantirilishi shart.

Yurtimizdagi ta’lim tizimi talabalarning madaniyatlararo tajribasini boyitish, bag‘rikenglik (tolerantlik) va boshqa madaniy guruh vakillari bilan konstruktiv muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirish uchun ushbu tizimni shakllantirishga intiladi. Multimadaniy muloqot madaniyati ta’lim jarayonining sifatiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatib, O‘zbekiston madaniy merosining xilma-xilligini chuqur anglash va qabul qilishni ta’minlaydi hamda ijtimoiy tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun zarur bo‘lgan madaniyatlararo tushunish va bag‘rikenglikni rivojlantirishda strategik rol o‘ynaydi.

Bizning tadqiqotimiz doirasida loyihalashtirilgan multimadaniy muloqot madaniyati tizimi to‘rtta asosiy komponentdan tashkil topgan:

Multimadaniy-muloqotiy bilimlar bloki: Ma’naviy qadriyatlar, xilma-xil madaniyatlar va hududiy submadaniyatlarning urf-odatlari, milliy mentalitet va muloqot an’analarining o‘ziga xos xususiyatlarini mukammal bilish;

Muloqotiy va interpretatsion tajriba bloki: Ko‘p madaniyatli muhitda vaziyatga mos muloqot uslubini mustaqil tanlash, o‘zga madaniyat vakillarining nutqiy xatti-harakatlarini, simvollari va lisoniy hodisalarini to‘g‘ri talqin (dekodlash) qila olish;

Muloqotga hissiy-tolerant munosabat bloki: Multimadaniy muloqot paytida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan perseptiv to‘siqlarni, tushunmovchiliklarni va madaniy nizolarni bag‘rikenglik asosida bartaraf etish hamda konstruktiv hal qilish qobiliyati;

Nutqiy etiket qoidalarini qo‘llash usullari: Ko‘p madaniyatli akademik auditoriyada va ijtimoiy muhitda muloqot etiketidan, nutq odobidan kamsitishlarsiz va to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasi.

Fikrimizcha, multimadaniy muloqot madaniyati talabalarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarining bosh poydevori hisoblanib, ushbu muloqot ko‘nikmalari talabalik davrining dastlabki bosqichlaridanoq tizimli tarkib toptirilgandagina bu poydevor barqaror bo‘ladi. Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarning shaxs sifatida shakllanishida

hal qiluvchi omilga aylanadi. Zero, ma’naviy-axloqiy fazilatlar tarkibida muomala va munosabat madaniyati har doim alohida o‘rin tutgan.

Ta’lim muassasasiga kelgan yoshlar o‘zlarining o‘rgangan an’anaviy oila va mahalla muhitidan tashqarida ilk bor keng qamrovli multimadaniy muomala va munosabat muammolariga (hududiy, madaniy va ijtimoiy adaptatsiya jarayonlariga) duch keladi. Aynan ta’lim muassasasida multimadaniy muloqot madaniyatini izchil, uzviylikda hamda ta’lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslangan holda shakllantirish tizimi amalga oshirilishi zarur. Ya’ni oila va mahalla tarbiyaviy ta’siridan farqli o‘laroq, bu yerda talabaga professional pedagogik ta’sir ko‘rsatiladi.

Shuningdek, ushbu tizim doirasida tarbiyada milliy, hududiy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga erishiladi. Ya’ni, oilada va mahallada ko‘proq lokal (mahalliy) milliy qadriyatlar va urf-odatlar tarbiyasi ustuvor bo‘lsa, ta’lim muassasasida dastlabki umuminsoniy muloqot qoidalari, kross-madaniy bag‘rikenglik va multimadaniy muomala madaniyati bo‘yicha professional tushuncha hamda ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘nalishida tizimli ish olib boriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot ishimiz doirasida oliy ta’lim muassasasi talabalarida multimadaniy muloqot madaniyatini shakllantirishda, avvalambor, muomala munosabatlarining quyidagi muhim qirralari o‘zaro uyg‘un tizim asosida shakllantirilishi kerakligini aniqladik:

Ko‘p madaniyatli muhitda talabalar va pedagoglar o‘rtasidagi subyekt-subyektli munosabat va muloqot;

Turli madaniyat va hududlardan kelgan talabalar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatga asoslangan salomlashish va nutqiy munosabat;

Ijtimoiy-madaniy, ma’naviy va jamoaviy mehnat jarayonlaridagi guruhlararo muloqot;

O‘quv mashg‘ulotlari (seminar, munozara, interaktiv o‘yinlar) jarayonidagi kross-madaniy munosabatlar;

Talabalarning ko‘p madaniyatli sotsiumdagi xulq-atvor va muloqotiy bag‘rikenglik ko‘nikmalarini shakllantirish;

Ommaviy-madaniy tadbirlar jarayonida rasmiy muloqot va nutqiy etiket elementlarini tizimli shakllantirish;

Kelgusi kasbiy faoliyat doirasida bo‘lajak hamkasblar o‘rtasidagi o‘zaro integratsion munosabat;

Muloqot diskursida o‘zga madaniy qadriyat egalariga nisbatan yuksak hurmat va minnatdorchilik bildirish madaniyati.

Olib borilgan konseptual qarashlar tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, talabalarning multimadaniy muloqot madaniyati — ko‘p madaniyatli bilimlar, muloqot tili va vositalari, ma’naviy qadriyatlar hamda umuminsoniy madaniy merosni o‘rganish, muloqot tolerantligi tajribasini boyitish hamda nutqiy etiket qoidalarini amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash jarayonida yaxlit tizim sifatida shakllanadi va namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Kompetentlikka asoslangan zamonaviy pedagogik yondashuvning bosh maqsadi, zamonaviy oliy ta’lim talablaridan kelib chiqqan holda, mutaxassisning

nazariy muloqot bilimlari va uni real multimadaniy muhitda amaliy qo‘llashi o‘rtasidagi uzilishni (baryerni) yengishga intilishdir. Shuning uchun bugungi o‘quv jarayoni amaliyotda, ya’ni ko‘p madaniyatli reallikda qo‘llanilishi qiyin bo‘lgan mavhum ma’lumotlarni talabalarga berishdan iborat bo‘lmasligi kerak. Aksincha, olingan bilimlarni dolzarb multimadaniy muloqot muammolarini va hududiy-sotsial to‘siqlarni hal qilish uchun safarbar etish, shuningdek, o‘quv jarayonida bu kabi kommunikativ muammolarni talabalarning o‘zlari mustaqil va bag‘rikenglik asosida hal qilishlari uchun zarur pedagogik sharoit yaratishdan iborat bo‘lishi kerak.

Talabalarda multimadaniy ta’lim muhiti sharoitida muloqot madaniyatini rivojlantirish tizimining barcha xususiyatlarini to‘liq o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish uchun quyidagi qator strategik jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim:

Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy, ma’naviy va umuminsoniy muloqot qadriyatlariga talabalarda multimadaniy muloqot madaniyatini rivojlantirishning bosh omili sifatida qarash. Universitet muhitidagi madaniy xilma-xillik talabalarni ajratuvchi emas, balki ularning muloqot madaniyatini boyituvchi asosiy resurs sifatida baholanishi zarur.

Talabalarda multimadaniy muloqot madaniyatini tizimli rivojlantirish uchun ularda yuqori darajadagi kommunikativ, perseptiv va sotsiomadaniy to‘siqlarni (stereotiplarni) kamaytirishga doir maxsus bilimlar va treninglar tizimini shakllantirish. Bu yoshlarga o‘zga madaniy yoki hududiy kodlarni to‘g‘ri tushunish imkonini beradi.

Multimadaniy ta’lim muhiti sharoitida muloqot madaniyatini rivojlantirish tizimining nazariy-metodologik asoslarini aniqlash va aniq me’yorlarini ishlab chiqish masalasini hal qilish. Bu jarayon tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilashga xizmat qiladi.

Multimadaniy muhitning o‘ziga xos xususiyatlarini va dinamikasini hisobga olgan holda, oliy kasbiy ta’lim sharoitida ushbu muloqot tizimini rivojlantirishning funksional-blokli (kognitiv, texnologik va aksiologik) innovatsion modelini joriy etish va uning samaradorligini monitoring qilib borish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

Jo‘rayev R.H. Ta’limda modernizatsiya va innovatsion jarayonlar. – Toshkent, 2018. – 210 b.

Ahmedova M.T. Pedagogika sohasida muloqot madaniyatini shakllantirish asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020. – 185 b.

Banks, J. A. (2019). An Introduction to Multicultural Education (6th ed.). Boston: Allyn and Bacon. – 180 p.

Bennett, M. J. (2013). Basic Concepts of Intercultural Communication: Paradigms, Principles, and Practices. Boston: Intercultural Press. – 352 p.

Shodmonova Sh.S. Oliy ta’limda pedagogik hamkorlik texnologiyalari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015. – 160 b.

Meyer, E. (2016). The Culture Map: Breaking Through the Invisible Boundaries of Global Business. PublicAffairs. – 288 p.

Deardorff, D. K. (2020). Manual for Developing Intercultural Competencies: Story Circles. UNESCO/Routledge. – 115 p.